

18-dars

Darsning mavzusi: Zid ma'noli so'zlar

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga zid ma'noli so'zlarni o'rgatish; so'zlarga so'roq bera olish ko'nikmasini o'stirish; talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni tabiat in'omlarini asrab-avaylash ruhida tarbiyalash; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, *“Moslashtirish”* va *“Bilag'on”* ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish; navbatchi axboroti; kun, oy, yil yangiliklari.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi

Kichik 'p' harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsur uzun tayoqcha, ikkinchi unsuri esa to'liq oval shaklida yoziladi.

Daftarga bir qator kichik “p” harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: paxta, pilla, poydevor, parda, piyola.

Uy vazifasi tekshiriladi va o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

III. Mustahkamlash.

81-mashqda berilgan gaplarni foydalanish uchun so'zlardan foydalangan holda davom ettirish topshirig'i berilgan.

Maydon hovlidan keng.

Uy hovlidan issiq.
Terak qayrag'ochdan baland.
Bo'ta ko'z qayrag'ochdan past.
Garmdori achchiq.
Asal shirin.
Yozning issiq kunida qo'zi bordi suv ichgani.
Ayi qishning sovuq kunlarida bir maromda orom oldi.

Dam olish daqiqasi

Marjonday terib yozgan
Barmoqlarim chiroyli.
Quvonchdan yashnab ketgan
Yonoqlarim chiroyli.
Xuddi mendek yozay deb,
Yrtog'imdan o'zay deb,
Ozoda daftarimni
"5" lar bilan bezay deb,
Mendan ham qolishmagan
O'rtoqlarim chiroyli.
82-mashq.

83-mashqda taqdim etilgan rasmlarida tasvirlangan zid ma'noli so'zlar juftligini tanlab yozish topshirig'i beriladi.

Uyqu-uyg'oqlik, tekis-jingalak, qora-oq, yigit-qiz, uzun-qisqa, katta-kichik.

V. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, guruhlardagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

84-mashqda berilgan maqollarni ko'chirib, ma'nolarini izohlash topshirig'i beriladi. Unda ishtirok etgan zid ma'noli so'zlar aniqlanadi.